

ANAMNEZIDA GIPERPROLAKTINEMIYA MAVJUD BO'LGAN AYOLLARDA BEPUSHTLIKNI TASHXISLASHNI OPTIMALLASHTIRISH

Toshpo'latova Gavhar Shavkat qizi

Ilmiy rahbar: DSc., Xikmatova N. I.

Buxoro davlat tibbiyot instituti

KIRISH

Bepushtlik butun dunyo bo'yicha tibbiyotdagi eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Butun dunyo bo'yicha 17,5% (har 6 odamdan 1 tasi bepushtlikdan azob chekadi) aholida bu muammo mavjud. Hozirgi kunda O'zbekiston aholisining 5,7%da bepushtlik kuzatilmoqda. Bepushtlikning sababi erkak ham, ayol ham bo'lishi mumkin. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, ayollar bepushtligi 45%, erkaklar bepushtligi 40%, har ikkalasida ham 15%. Bepushtlik tibbiyotdagi eng muhim muammolardan biri bo'lsa-da, zamonaviy tibbiy yondashuvlar yordamida bepushtlikni erta tashxislash va uni davolash yordamida bepushtlikni bartaraf etish mumkin. Bunda bizga bepushtligi mavjud bo'lgan ayollardan chuqur anamnez yig'ish, klinik laborator tekshiruvlar, instrumental tekshiruvlar o'tkazish juda katta yordam beradi. Shuning uchun bunday bemorlar bilan ishlashda aniq tashxis va individual yondashuv muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot maqsadi: tadqiqotning asosiy maqsadi – anamnezida giperprolaktinemiya mavjud bo'lgan ayollarda bepushtlikni tashxislashni optimallashtirish va amaliyotga tatbiq etish.

Materiallar va usullar: tadqiqotda 2024-2025 yillar davomida giperprolaktinemiya sababli bepushtlik bilan ro'yxatga olingan 50 nafar bepusht ayollar kuzatildi. Bemorlar yoshi 30 dan 45 yoshgacha bo'lib, ularning barchasida klinik laborator va instrumental tekshiruvlar olib borildi va bu tekshiruvlar asos qilib olindi. Har bir bemor holatiga individual yondashuv asosida tekshiruvlar o'tkazildi.

Tadqiqot natijalari: tadqiqot natijalariga ko'ra, 50 nafar ayoldan 35 nafarida gormonal tekshiruv, 10 nafarida ultratovush tekshiruvi, 5 nafarida MRT tekshiruvi bepushtlik sababini aniq namoyon qilib berdi. Tadqiqot o'tkazish vaqtida ayollar bilan suhbat o'tkazish va chuqur anamnez yig'ish ham diagnoz qo'yishni ancha yengillashtirdi. Tadqiqot davomida ayollarda shu aniqlandiki, 80 foizida farzandsizlik tufayli stress kuzatilgan va bu ayollar bilan psixolog bilan birgalikda tushuntirish va targ'ibot suhbatlari o'tkazilganda, ijobiy natijaga erishildi.

Xulosa: giperprolaktinemiya sababli bepushtlik tashxisi qo'yilgan ayollar bilan maxsus tekshiruv va davolash ishlarini olib borish talab qiladi. Bunda ayolning ham ruhiy, ham jismoniy holati bevosita katta ta'sir ko'rsatadi. Bemorning ahvolini doimiy monitoring qilish ijobiy natija beradi. O'z vaqtida aniq tashxis qo'yish uchun

zamonaviy ilg'or texnologiyalardan foydalanish diagnostika qo'yishda sezilarli yengillik yaratadi.